

**O‘ZBEK TILINI TURKIYA UNIVERSITETLARIDA O‘QITISH
TAJRIBASIDAN**
(Ankara universiteti misolida)

Shaxlo Shukurlaevna Yuldasheva,
*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
professori, pedagogika fanlari nomzodi*
shahlondpi@gmail.com.
ORCID ID: 0000-0001-9797-8635

Aynur O‘z O‘zjan,
*Ankara universiteti Zamonaviy turkiy tillar
va adabiyotlari bo‘limi professori,
filologiya fanlari doktori, Turkiya Respublikasi*

Abstrakt. Maqolada Turkiya Respublikasi Anqara universiteti Til va tarix-jo‘g‘rofiya fakulteti Zamonaviy turkiy tillar va adabiyoti bo‘limi Janubi-sharqiy turk shevalari va adabiyoti kafedrasida o‘zbek tilini o‘qitishning mazmuni va o‘quv mashg‘ulotlarining tashkil etilishi haqida so‘z yuritilgan. Unda kafedrada o‘zbek tilini bakalavr dasturining 1-bosqichida intensiv shaklda o‘qitish bilan baravar bosqichma-bosqich o‘zbek tilining fonetik, leksik, grammatik sathlari bo‘yicha nazariy ma‘lumotlarni turk tiliga qiyoslab oddiydan murakkabga tomon tizimli o‘rganish bo‘yicha to‘plangan tajriba va qardosh tillarni qiyoslab o‘qitish masalalari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, turk tili, filologik ta‘lim, qardosh tillar, qiyosiy metod.

Kirish

Maqola maqsadi Turkiya Respublikasi universitetlarida o‘zbek tilini o‘qitishda to‘plangan tajribalarni o‘rganish va bu jarayonning metodik qo‘llab-quvvatlanishi bo‘yicha muhim yo‘nalishlarni belgilab olishdan iboratdir. Mazkur maqsadga erishish tadqiqot muammolarini izchil hal qilish, ya‘ni qardosh tillarning qiyoslab o‘qitilishida lingvometodik qiyoslash, tabiiy bo‘lmagan til muhitida o‘zbek tilini o‘qitish mazmunini yaratish kabi vazifalarga uzviy bog‘lanadi.

O‘zbek tili o‘rganilayotgan Anqara universiteti Zamonaviy turkiy tillar va adabiyotlar bo‘limi Janubi-sharqiy turk shevalari va adabiyoti kafedrasida tajribalarini o‘rganib chiqish tadqiqotimizda qo‘yilgan muammoning yechimlari uchun muhim ahamiyatga ega. Kichik tadqiqotda o‘zbek tilini o‘qitish bilan shug‘ullanayotgan professor-o‘qituvchilarning tajribalarini o‘rganish, kuzatish, suhbat, intervyu, darslar va universitetlar saytlari tahlili amalga oshirildi.

Ankara universitetida Zamonaviy turkiy tillar va adabiyoti bo‘limi Til, tarix va geografiya fakulteti tarkibida 1992-yilda ochilgan¹. Mazkur kafedrada uzoq yillar

¹ Aynur O‘z O‘zjon. Turkiyada o‘zbek tilini o‘qitish metodlari. //Globallashuv davrida o‘zbek tilining mavqei. Xalqaro konferensiya to‘plami (elektron nashr). – Nukus, 2020. – 17 – 20 b.

davomida professor I.Qo‘chqortoev bakalavr, magistratura dasturlari bo‘yicha tahsil olayotgan talabalar, shuningdek o‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan doktorantura tadqiqotchilariga o‘zbek tili leksikologiyasi va grammatikasidan dars bergan². Shu yillardan e‘tiboran bo‘lim Turkiyaning boshqa universitetlarida o‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlashda ham asosiy tayanch ta‘lim muassasasiga aylangan. Bo‘lim Anqara universitetidan keyin boshqa universitetlarda ketma-ket ochilgan Zamonaviy turkiy tillar va adabiyotlar bo‘limlari uchun mutaxassislar tayyorlab kelmoqda. Hozirgi kunda bo‘limda ozarbayjon, turkman, qozoq, qirg‘iz, xakas, yoqut, tuva kabi turkiy tillar bilan birga o‘zbek tili ham o‘rgatilmoqda va o‘zbek tili, o‘zbek adabiyotiga tegishli dars mashg‘ulotlari fan doktori, professor Aynur O‘z O‘zjon tomonidan muvaffaqiyatli olib borilmoqda. Prof. Aynur O‘z O‘zjon o‘zbek tilini ona tili darajasida egallagan. 1992 – 1993-yillarda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutida stajirovkada bo‘lgan. 1996-yilda O‘zbekiston Milliy universitetining Turkologiya kafedrasida turk tilidan dars bergan. Ilmiy faoliyati o‘zbek tilshunosligi bilan bog‘langan: 1994-yilda “Özbekçe ve Yeni Uygurca Arasındaki Fonetik Ayraçlar” mavzusida magistrlik, 1999-yilda “Özbek Türkçesinde İsimler” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

2019-yildan buyon O‘zbekiston OTMlarining professor-o‘qituvchilari (Nukus davlat pedagogika institut professor-o‘qituvchilari p.f.n., dotsent Sh.Sh.Yuldasheva, f.f.n., dotsent S.G.Matyakupov, katta o‘qituvchi D.S.Kabulova, G.A.Yusupovalar, O‘zbekiston Milliy universiteti professori, f.f.d. M.M.Qurbonova, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professor-o‘qituvchilari f.f.n., dotsent M.Saparniyazova, f.f.n., dotsent I.Azimov, f.f.n., dotsent S.Bozorovalar, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti PhD X.Imamova) Anqara universitetida malaka oshirish, stajirovka jarayonida o‘zbek tili va adabiyoti fanlaridan ma‘ruza, amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishgan, o‘zbek tilshunosligi, adabiyotshunosligi va ularni o‘qitish nazariyasi hamda metodikasining ayrim masalalari bo‘yicha seminarlar tashkil qilishgan.

Turkiyadagi boshqa universitetlardan farqli o‘laroq (boshqa universitetlarda o‘zbek tili tanlov asosida 2-kursda yoki 3-kursda bir semestr davomida o‘qitiladi) Anqara universitetining Zamonaviy turkiy tillar va adabiyoti bo‘limi Janubi-sharqiy turk shevalari va adabiyoti kafedrasini tomonidan o‘zbek tili o‘quv rejasiga **majburiy fan** sifatida kiritilgan. Shunisi muhimki, bakalavr dasturida o‘zbek tili 8 semestr

² Kuçkartayev, İ. (2018). Doğumunun 80. Yıl Münasebetiyle Prof. Dr. İristay Kuçkartayev’in Türkiye’deki Bilimsel Mirası. Aynur ÖZ ÖZCAN (Haz.). Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları

davomida uzluksiz o‘qitiladi. O‘quv rejasidan “Özbek Türkçesi I (Uzbek Turkish I)”, “Özbek Türkçesi II (Uzbek Turkish II)”, “Özbek Türkçesi III (Uzbek Turkish III)”, “Özbek Türkçesi Okuma-anlama I (Uzbek Turkish reading comprehension I)”, “Çağdaş Özbek Edebiyatı”, “Çağdaş Özbek Edebiyatı: şiir” kabi fanlar o‘rin olgan.

Bakalavr dasturining 1-semestrda 23 soat Özbek Türkçesi (O‘zbek tili), 4 soat “Özbek Türkçesi Okuma-anlama” (O‘zbek tili o‘qib tushunish), 8 soat “Çağdaş Özbek Edebiyatı” (zamonaviy o‘zbek adabiyoti, 2 soat “Özbek halk sanatı” (O‘zbek xalq og‘zaki ijodi), 2 soat “Sözlük Bilimi” (Leksikologiya) va 2 soat “Özbekistan Tarihi” (O‘zbekiston tarixi) fanlari o‘qitiladi (haftalik soatlar nazarda tutilmoqda – M.). 4 yil davomida o‘zbek tili “Özbek Türkçesi I”, “Özbek Türkçesi II”, “Özbek Türkçesi III”, “Özbek Türkçesi IV” darslarida o‘rgatiladi. Birinchi semestrda “Özbek Türkçesi I” fanining maqsad va vazifalari talabalarga o‘zbek tili fonetikasini chuqur o‘rgatish va boshlang‘ich leksik minimum bilan tanishtirishdan iborat. Bu davrda talabalar o‘zbek alifbosi bilan tanishadilar. Muhim jihat shuki, avvalo, kirill alifbosi o‘rganiladi. Natijada talabalar kirill alifbosida o‘qish va yozishdan xabardor bo‘ladilar. Nutq tovushlarini to‘g‘ri talaffuz etish, tildagi fonetik hodisalarni farqlash uchun darslarda talaffuz mashqlari o‘tkaziladi. Kuzatishlardan ma‘lum bo‘ldiki, aksariyat hollarda talabalar o‘zbek alifbosidagi ba‘zi harflarning birdan ortiq tovushni ifoda etishi tufayli talaffuzda qiynalishadi. Shu sababli fan dasturida unli tovushlar mavzusiga amaliy dars soatlari ko‘proq ajratilgan. Bu darslarda o‘zbekcha manbalardan, xususan, O‘zbekistonda chop etilgan badiiy va ilmiy adabiyotlardan talabalar darajasiga mos matnlar o‘qitiladi.

O‘zbek tili morfologiyasini o‘rganish 2-semestrda boshlanadi va 4-bosqichga qadar davom etadi. 2-semestrda talabalarga grammatik ma‘no, grammatik shakl tushunchalari, o‘zbek tilida so‘zlarni turkumlarga ajratish qoidalari batafsil o‘rgatiladi. Morfologiyani o‘rganish mashg‘ulotlarida va boshqa darslarda ham grammatik hodisalar turk tiliga qiyoslanadi.

Mustaqil so‘z turkumlaridan otlar va uning grammatik kategoriyalarining barcha qonun-qoidalari o‘rgatiladi. Hurmat kategoriyasi ustida alohida to‘xtash orqali talabalarning bu mavzuni tushunishlari uchun dialoglar va matnlar o‘qitiladi. Bunda qisqa va oson tushuniladigan, kundalik hayotga oid so‘zlar ko‘p qo‘llaniladigan matnlar tanlanadi. Xususan, ikkinchi bosqichdan boshlab Afandi latifalaridan foydalaniladi. Keyinchalik yanada katta hajmdagi matnlarga o‘tiladi. Sifat, olmosh va son so‘z turkumlari turk tili bilan qiyoslanib o‘rgatiladi. Son so‘z turkumi turk tilida alohida so‘z turkumi sifatida ajratilmagani uchun bu so‘z turkumi haqida ko‘proq tushuncha berishga to‘g‘ri keladi. Mustaqil so‘z turkumlaridan biri fe‘llar mavzusi 4-

semestrda yarim yil davomida turk tili bilan qiyoslab o‘rganiladi. Grammatik mavzular tushunishga oson bo‘lishi uchun o‘zbek hikoyalaridan namunalari o‘qitiladi va o‘rganilgan grammatik kategoriyalar va so‘z turkumlarini talabalar matnlar ichidan topib tahlil etadilar. O‘quv rejasiga ko‘ra, 2-bosqichda, 4-semestrda o‘zbekcha o‘qib tushunish darslari boshlanadi. Bu darslarda talabalarning saviyasiga mos matnlar tanlanib, o‘qigan matnni tushunish va o‘z fikrini ifoda etish ko‘nikma va malakalari shakllantiriladi. Bundan tashqari, talabalarning o‘qib tushunish darajasini aniqlash maqsadida matn haqida o‘zbekcha (savol-javob shaklida) suhbat o‘tkaziladi.

Mustaqil so‘z turkumlarini o‘rganish ravish so‘z turkumi haqidagi darslar bilan yakunlanadi. 3-bosqichda (5-semestr) yordamchi so‘z turkumlari o‘qitiladi. Ko‘makchi, bog‘lovchi va yuklamalar ham nazariy, ham amaliy jihatdan o‘rgatiladi. Bu so‘z turkumlari turk tili bilan qiyoslanib talabalarning so‘z turkumlarini to‘g‘ri qo‘llashi, o‘zbek tilidan turk tiliga va aksincha turk tilidan o‘zbek tiliga tarjima qila olish ko‘nikmalari rivojlantiriladi. 6-semestrda sodda gap sintaksisi, 7-semestrda qo‘shma gaplar va ularning turlarini mukammal o‘rganishga kirishiladi. Sintaksis mashg‘ulotlarida gap bo‘laklari tahliliga keng o‘rin beriladi. Shuni alohida ta’kidlash o‘rinliki, 3-kursda “Özbek Türkçesi iş yapmak” (O‘zbek tilida ish yuritish”, 4-kursda “Özbek Türkçesi Diyalektolojisi” (O‘zbek dialektologiyasi) fani ham o‘qitiladi. O‘zbek shevalarining fonetik, morfologik va leksikologik xususiyatlari umumiy o‘rganilib, shevada yozilgan matnlarni o‘qish orqali ko‘nikma va malakalar shakllantiriladi. Bu matnlar adabiy tilga qiyoslanib fonetik, leksik, grammatik farqlar aniqlanadi.

O‘zbek tili mashg‘ulotlari amaliy xarakterda o‘rganilishi tufayli “Özbekçe Öğreniyoruz”³, “Özbek Türkçesi Gramer-Metin-Sözlük”⁴, “Modern Özbek Türkçesi (Giriş-Özbekistan-Dil Tarihi-Metinler-Gramer-Sözlük)”⁵ kabi darsliklardan foydalaniladi. Turkiya Respublikalari universitetlarida o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish bo‘yicha bir qator o‘quv adabiyotlari Turkiya va O‘zbekiston olimlari hamkorligida yaratilgan.

Xorijda o‘zbek tilini o‘rgatish bo‘yicha ko‘p yillik tajribaga ega bo‘lgan professor J.Eltazarov ta’kidlaganidek, o‘zbek tilini xorijda o‘qitish oson ish emas. Faqat grammatikani o‘rgatish bilan ish bitmaydi. Tilni o‘rgatish jarayonida butun o‘zbek madaniyatini, tarixini, etnografiyasini, urf-odatlarini o‘rgatish kerak.

³ Eltazarov, J., Koç, K., Yokubov, İ. (2021). Özbekçe Öğreniyoruz. – İstanbul: Kesit Yayınları

⁴ Gültekin, M., Koraş, H., Kurbanova, M. (2019). Özbek Türkçesi Gramer-Metin-Sözlük. – İstanbul: Kesit Yayınları

⁵ Uşenmez, E. (2012). Modern Özbek Türkçesi (Giriş-Özbekistan-Dil Tarihi-Metinler-Gramer-Sözlük). – İstanbul: Akademik Kitaplar.

Kompleks yondashish talab etiladi. Avval so‘zlashishni, yozishni o‘rgatasiz, keyin o‘zbek tilining sodda kursida darslar olib borasiz. Harfni tanitasiz, salomlashish, gaplashish... Shu tarzda sohalarni kengaytirib boraverasiz. Masalan, ta’lim, tarix, sog‘liqni saqlash, gigiena, tabiat va hokazo. Talabaga o‘zbek tilida dunyoning lisoniy manzarasini ochishingiz kerak. U avval dunyoni o‘z ona tilining «derazasi» orqali ko‘rayotgan bo‘lsa, endi dunyoning lisoniy manzarasiga o‘zbek tili ko‘zi bilan ham qaraydi. Har bir til uchun dunyoning lisoniy manzarasi bor. Har bir millat dunyoga o‘z mentaliteti, dunyoqarashi, mafkurasi, tabiati va jo‘g‘rofiyasidan kelib chiqib qaraydi⁶. Albatta, o‘zbek tili mashg‘ulotlarida bu maqsadga muayyan darajada erishiladi. Shunday bo‘lsa ham, o‘zbek xalqining adabiyoti, madaniyati, urf-odatlarini, tarixiga oid ma’lumotlar talabalarga maxsus fanlarni o‘rgatishni taqozo qiladi. Shuning uchun ham o‘quv rejasida o‘zbek adabiyoti va O‘zbekiston tarixini alohida fanlar sifatida o‘rganish nazarda tutilgan. Bakalavr bosqichi bitiruv malakaviy ishini tayyorlash va himoya qilish bilan yakunlanadi. Bitiruv ishi mavzulari ham o‘zbek tili va adabiyotining dolzarb masalalariga bag‘ishlanadi.

Anqara universiteti Zamonaviy turkiy tillar va adabiyotlar bo‘limida magistratura va tayanch doktorantura dasturlarida tahsil olayotgan magistrant va tadqiqotchilar har bir dastur bo‘yicha 2 semestr davomida o‘zbek tili va adabiyotini o‘rganadilar. Mazkur mashg‘ulotlar magistrant va doktorantlarni mutaxassis sifatida shakllantiradigan darajada olib boriladi. Tilshunoslik sohasida ilmiy tadqiqot olib boradigan magistrant va doktorantlarga til darslari, adabiyotshunoslik sohasida izlanishlar qilayotganga esa adabiyot darslari beriladi. Magistrant va doktorantlar fanlarning nazariy qismlarini muvaffaqiyatli egallaganlaridan so‘ng dissertatsiya tayyorlaydilar.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, deyarli barcha mashg‘ulotlarda o‘zbek tili talabaning ona tili bilan qiyoslanib o‘rganiladi. Binobarin, o‘zbek tilini o‘rganayotgan qardosh tillar vakillari tilni o‘zlashtirishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni aniqlash qardosh tillardagi lisoniy hodisalar va til faktlarini lingvometodik jihatdan qiyoslashni taqozo qiladi. Avvalo, lingvometodik jihatdan qiyoslashda qiyoslanuvchi til hodisalarining **hajmi** qanday bo‘lishi kerak, degan savolni hal qilib olish zarur. Bunda qiyoslanayotgan til birliklari semantikasi va tuzilishidagi barcha o‘xshashliklar va nomuvofiqliklar emas, balki ta’lim maqsadidan kelib chiqqan holda ikkinchi til sifatida o‘rganilayotgan tilning leksik va grammatik minimumini tashkil qiluvchi o‘quv tili o‘rganish ob’ekti sifatida tanlanadi. Bu o‘ziga xos ixcham tahlil sifatida namon bo‘ladi. Bu tahlilning amalga oshirilishi va tahlili natijalari

⁶ <http://uchildiz.uz/американинг-8-университетида-ўзбек-ти/>

o‘rganuvchilarning o‘zbekcha nutqida ona tili ta‘sirida interferensiya va transpozitsiyaga bog‘liq xato va kamchiliklarni bartaraf qilish va faol bilingvni shakllantirish bo‘yicha ishlarni jadallashtirishga yordam beradi.

O‘zbek tilini o‘qitish jarayonida asosan o‘zbek tili tizimi, til hodisalari va birliklariga e‘tibor qaratilgan holda o‘rganilayotgan til hodisalari va vositalarining talaba ona tilida qanday ekanligiga ahamiyat qaratiladi. Xususan, o‘zbek tilidagi u yoki bu til hodisasini o‘rganish chog‘ida bu o‘zbek tilida bunday, qoraqalpoq (qozoq, turkman, turk) tilida bunga mos keladimi, degan savol o‘rtaga qo‘yiladi. Shuningdek, aksariyat hollarda o‘rganuvchilarning o‘zbekcha og‘zaki yoki yozma nutqidagi xatolarga ko‘ra o‘rganuvchi ona tilidagi hodisaning o‘zbek tilidagi muqobilini qiyoslashga to‘g‘ri keladi. Chunki aksariyat hollarda o‘rganuvchi o‘z ona tili ta‘siridan chiqib ketolmaydi.

Ikkinchidan, qardosh tillarni lingvometodik qiyoslash taqqoslash mazmunini ham belgilab olishni taqozo qiladi. Bu holatda lingvistik birliklarning shaklinimi, ma‘nosinimi yoki ularning vazifasini solishtirishni aniqlashtirish lozim. Tilda so‘z va shakllarning ko‘p ma‘noliligi, omonimligi, paronimligi kabi jihatlar mavjudligini e‘tiborga olsak, bu oson ish emasligi ma‘lum bo‘ladi. Bu boradagi mavjud tadqiqotlar ma‘no – shakl – vazifa yo‘nalishida olib borilganligini ko‘rsatadi.

Fonetik birliklar, ya‘ni nutq tovushlarini qiyoslashda tillarning artikulyatsion bazasidagi o‘xshashlik va farqlar aniqlanadi. Taqqoslash uchun so‘z, so‘z birikmalari va gaplar tanlab olinadi.

Leksik birliklarni qiyoslash so‘zlarning denotativ va konnotativ ma‘nolari o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarga asoslanib, tahlil uchun abzas yoki matnlar taqozo qilinadi.

Grammatik shakllarni qiyoslashda so‘z birikmasi, gap va matnlarga murojaat qilinadi.

Tillarning sintaktik qurilishi va tuzilishini taqqoslash esa gaplar, bog‘lanishli matnlar bo‘yicha amalga oshirilishi zarur.

Qardosh tillarni lingvometodik qiyoslash materiallariga tayanib qaysi til hodisalari qiyoslanayotgan tillarda umumiylik kasb etishi, ya‘ni to‘la mos kelishini; qaysi til hodisalari qiyoslanayotgan tillarda differensial xususiyatlarga ega ekanligi, qisman mos kelishi; qaysi til hodisalaridagi differensial belgilar qiyoslanayotgan tillardan biriga xos bo‘lgani holda, ikkinchisida mavjud emasligi bo‘yicha xulosalarga kelish mumkin.

Bu bilimlar esa o‘qitish jarayonida ikki tildagi muvofiqliklar, ya‘ni tranferensiyani va interferensiyani hisobga olgan holda darsni boshqarishga ijobiy

ta’sir ko‘rsatadi. Shu tariqa o‘zbek tilini o‘qitishda ona tilining ta’sirini hisobga olishi prinsipiga amal qilinadi.

Qardosh tillar qanchalik bir-biriga yaqin bo‘lmasin o‘zbek tilini o‘qitish jarayonida o‘qituvchi o‘rganuvchining ona tili fonetikasi, morfologiyasi, sintaksisi bilan tanish bo‘lishi, minimal so‘z boyligini bilishi ta’lim muvaffaqiyatiga yo‘l ochadi.

O‘tgan asrdagi tadqiqotlardan o‘zgarib ketgan tilga ijobiy (transferensiya) va salbiy (interferensiya) ta’siri qay darajada bo‘lishi haqida muhim xulosalar e’lon qilingan edi. Xususan, ona tilining o‘rganilayotgan tilga ijobiy ta’siri 40 foiz, salbiy ta’siri 20 foiz bo‘lishi haqidagi statistik ma’lumotlar⁷ xorijiy til o‘rganish jarayoniga taalluqli bo‘lsa ham, bu o‘zbek tilining qardosh tillar vakillariga o‘qitilishiga ham mos keladi.

Kuzatishlar va o‘rganishlar turkiy auditoriyada o‘zbek tilini o‘qitishda ijobiy (transferensiya) va salbiy (interferensiya) ta’siri yuzasidan tadqiqotlar miqyosini kengaytirish zarur degan xulosaga kelishimizga asos bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aynur O‘z O‘zjon. Turkiyada o‘zbek tilini o‘qitish metodlari. //Globallashuv davrida o‘zbek tilining mavqei. Xalqaro konferensiya to‘plami (elektron nashr). – Nukus, 2020. – 17 – 20 b.
2. Eltazarov, J., Koç, K., Yokubov, İ. (2021). Özbekçe Öğreniyoruz. – İstanbul: Kesit Yayınları
3. Gültekin, M., Koraş, H., Kurbanova, M. (2019). Özbek Türkçesi GramerMetin-Sözlük. – İstanbul: Kesit Yayınları
4. Kuçkartayev, İ. (2018). Doğumunun 80. Yıl Münasebetiyle Prof. Dr. İristay Kuçkartayev’in Türkiye’deki Bilimsel Mirası. Aynur ÖZ ÖZCAN (Haz.). Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları.
5. Komkov I. F. Obuchenie inostrannoy rechi Minsk: Visshaya shkola, 1973. 84 s.
6. Üşenmez, E. (2012). Modern Özbek Türkçesi (Giriş-Özbekistan-Dil Tarihi-MetinlerGramer-Sözlük). – İstanbul: Akademik Kitaplar.
7. <http://uchildiz.uz/amerikaning-8-universitetida-o'zbek-ti/>
8. Kulsha, Dzmitry & Ryabokoneva, Oxana. (2020). Teaching Russian in Turkish universities: modern trends. Russian Language Studies. 18. 359-370. 10.22363/2618-8163-2020-18-3-359-370. JO - Russian Language Studies
9. Кульша Д.Н., Рябоконева О.В. Изучение русского языка в университетах Турции: динамика последних лет // Русистика. 2020. Т. 18. № 3. С. 359–370.
10. <http://dx.doi.org/10.22363/2618-8163-2020-18-3-359-370>

⁷ Комков И. Ф. Обучение иностранной речи Минск: Высшая школа, 1973. 84 с.